



ORCID: 0000-0003-2288-5682

MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI AQLI ZAIF BOLALARING NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Abidova Nilufar Zakirovna
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
Pedagogika fanlari doktori (DSc),*

Usmonova Shohista Yo‘ldashbayevna
*Toshkent kimyo xalqaro universiteti
+998 93 597-12-76
usmonovashakhista@gmail.com*

Annotasiya Mazkur maqolada maktabgacha va maktab yoshidagi aqli zaif bolalarining nutqini rivojlantirish metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Aqli zaif o‘quvchilarda nutq nuqsonlarini bartaraf etishning samarali yo‘llari va maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini o‘stirishga alohida ahamiyat berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: aqli zaif bolalar, tafakkur quroli, muloqot vositasi, nutqini rivojlantirish, nutq nuqsonlari, nuqsonlarni bartaraf etish, samarali yo‘llar, maxsus pedagogika, maxsus maktab, logopediya.

Аннотация В статье описаны особенности методов речевого развития детей дошкольного и школьного возраста с задержкой психического развития. Эффективные пути устранения речевых дефектов у умственно отсталых учащихся и придания особого значения развитию речи детей в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: умственно отсталые дети, средство мышления, средство общения, речевое развитие, дефекты речи, устранение дефектов, эффективные способы, специальная педагогика, специальная школа, логопед.

Abstract This article describes the specific features of speech development methods of preschool and school-aged children with mental retardation. Effective ways to eliminate speech defects in mentally retarded students and to give special importance to the development of children's speech in preschool educational institutions.

Key words: mentally retarded children, thinking tool, communication tool, speech development, speech defects, elimination of defects, effective ways, special pedagogy, special school, speech therapy.

KIRISH. Aqli zaif bolalardagi shartli refleks faoliyatida, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘zaro munosabatida hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimining o‘zaro aloqasida buzilishlar kuzatilishi, bularning hammasi fiziologik asoslar va mexanizmlar zamirida bola ruhiy faoliyatining buzilishiga olib kelishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar sharhi, maxsus pedagogika sohasidagi qator yutuqlarga qaramay, respublikamizda aqliy rivojlanishida muammolari bor bolalar nutqini keng qamrovli o‘rganishning muayyan rejasi ishlab chiqilmaganligi, bu esa, o‘z navbatida, bunday bolalarga erta korreksion yordam ko‘rsatishning to‘g‘ri tashkil etilishiga jiddiy to‘siq bo‘layotganligini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maktabgacha yoshdagagi aqli zaif bolalar nutqini o‘stirish bilan bog‘liq masalalar maxsus bog‘chalarining korreksion-pedagogik ishining markazida turadi va maktabda ona tilini o‘qitishning asosini tashkil qiladi. Aqli zaif bolalarga maxsus ta’lim-tarbiya berilganda, ularda faqat oddiy malaka va ko‘nikma xosil bo‘libgina qolmay, balki ma’lumotlarni ongli ravishda eslab qolish, umumlashtirish, taqqoslash kabi aqliy faoliyat malakalari ham o‘zlashtirib boriladi. Garchi bu jarayon aqli zaif bolalarda qiyin kechsa-da, maxsus ta’sir etish tufayli bu toifadagi bolalarning kamolotiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini o‘stirishga alohida ahamiyat beriladi. Olib borilgan kuzatishlar va izlanishlar natijasida hayotining dastlabki oylarida bolaning kattalar bilan muloqotga kirishuvi uning faolligini oshiradi, hissiyotini boyitadi va bilish faoliyati uchun zarur bo‘lgan holatlar (qo‘llar harakati va nutq) rivojlanishiga imkon yaratadi, degan xulosalarga keldik. Bu holat shuni o‘zida ifodalaydiki, birinchidan, dastlabki yarim yillik hayoti chog‘ida yaxshi tashkil etilgan hissiy muloqot mavjud bo‘lsa, bolalar bilishda yuqori faollikni namoyon etishi mumkin, ikkinchidan, ular bunday muloqotga kirishmagan tengdoshlaridan ma’lum darajada o‘zib ketadilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillardan ko‘rinib turibdiki, bolalarning maktabgacha tarbiya davrida kattalar bilan muloqotga kirishishga intilishini to‘g‘ri yo‘naltirmoq zarur. Aqli zaif bolalarning barcha toifalari uchun nutqiy faoliyatning buzilishi umumiylar xususiyat hisoblanadi. Nutqiy o‘sishdagi yetishmovchilik aqli zaif bolalarning atrofdagilar bilan muloqotini cheklab qo‘yadi. Bu, o‘z navbatida, bilish, so‘z bilan uyg‘unlashgan axborot olishni ma’lum ma’noda o‘sishdan to‘xtatib qo‘yadi. Aqli zaif bolalar nutqini o‘stirish qiyin kechsa-da, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Nutq tarbiyasi ta’lim asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham aqli zaif bolalar nutqini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bolalarda nutqning o‘sishiga yordam beradigan vositalarni yoki uning orqada qolish sababini aniqlash bu jarayonga muvofiq pedagogik ta’sirni tashkil etishning kaliti bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, so‘z boyligining kambag‘alligi aqli zaif bolalarda nutqning grammatik qurilishini o‘z vaqtida egallahga to‘sqinlik qiladi. Aqli zaif bolalar jumlalar tuzish uchun kerakli so‘zlarni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularda so‘zlar

ma’nosini tushunish shakldan mazmunga tomon ko‘rinishda vujudga keladi. Bunday bolalarda so‘zlarining mazmunini o‘zlashtirish jarayoni juda uzoq muddatni talab qiladi. Ularning mazmunga mos so‘zlarni tanlashi va o‘z fikrini ifoda qilishi tengdoshlarinikiga qaraganda o‘zgacha kechadi.

O‘quvchilar til materiallarini tahlil qilishga, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish, asosiylarini ajratishga o‘rganadilar. Materialni analiz va sintez qilish, guruhlash va umumlashtirish, o‘xshash va farqli tomonlarni topish, grammatik va orfografik bilimlarni amalga tatbiq etish kabi ongli aqliy jarayonlar bolaning umumiyl rivojlanishini ta’minkaydi, nutqiy va aqliy nuqsonlarini bartaraf etishga yordam beradi. Ona tili va yozuv darslarida o‘qituvchi bolalarni til hodisalarini kuzatish va tushunib yozish, ongli o‘qish, kitob yoki doskadan, kartochkalardan ko‘chirib yozish, nutqni diqqat bilan tinglash, eshitib turib yozish, o‘rgangan qoidaga amalda rioya qilish, aytilgan va rak bo‘lsa, maxsus matabda ushbu o‘yinlar, birinchi navbatda, nutq faoliyati motivlarini shakllantirishning samarali usuli bo‘lib xizmat qila oladi. Bundan tashqari, o‘yinlar nutq amaliyotini kengaytirishga, so‘zlarining ma’nolarini, so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglashga qaratilishi mumkin.

Maxsus matabda o‘qitishda foydalanilgan **metodlarni** shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin: nutqni shakllantirish va korreksiyalash uchun foydalaniladigan usullar va ommaviy matabdagagi usullar bilan bir xil bo‘lgan, grammatika, fonetika, imloni o‘rganish uchun foydalaniladigan usullar. Mazkur usullar o‘qituvchining til o‘qitishning turli vazifalarini hal qilishga tabaqalashtirib (turlich) yondashishiga yordam beradi.

Masalan, u yoki bu usulning aniq o‘qitish vositalari bilan bog‘lanishiga ko‘ra usullarni guruhlarga ajratamiz: ko‘rgazmali (namoyish qilish, kuzatish, ekskursiyalar o‘tkazish), so‘zlashuv (suhbat o‘tkazish, tushuntirish, darslik materialini o‘qish va hokazolar) hamda «aralash» usullar (ko‘rgazmali-so‘zli usullar: kuzatishlar va ularga oid o‘qituvchining tushuntirishlari, rasm bo‘yicha suhbat olib borish va hokazolar).

Tilning grammatik qurilishini shakllantirish darslari oldindan tayyorlangan leksik material asosida o‘tkazilishi, lekin aniq dars materialiga kiritilgan leksikaning tushunilishini darsning boshida tekshirish kerak. O‘qituvchi bolalar leksikani tushunishlarini mashg‘ulotning davomida ham, shu jumladan, o‘quvchilarning gap o‘ylab topishlari, misollar tanlashlari paytida ham nazorat qilib borishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Amaliy grammatika darslarining bosh vazifikasi o‘quvchilarni umumlashmalarga olib kelish asosida tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat bo‘lganligi sababli, ularga qiyoslash, analiz va sintez usullaridan foydalanib bajariladigan turli mashqlar kiritilishi yaxshi samara beradi. O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlanish va mustahkamlashlarida negiz bo‘ladigan yaxlit vaziyatlarni yuzaga keltirish amaliy grammatika darslarida foydalaniladigan tipik usuldir. Ularning yechimi amaliy ijrosi shakllantirilgan tasavvurlar va tushunchalarning aniqligi, zamonga, makonga oid va boshqa belgilarning to‘g‘ri farqlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu mashqlarning barchasi o‘xshatish asosida tuzish bilan bir qatorda o‘quvchilarning tuzilma (so‘z, kontekst)ni tahlil qilishdan iborat bo‘lgan harakatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha bunday mashqlar shaklan konstruktiv bo‘ladi, lekin ularga qo‘srimcha ravishda shunday topshiriq beriladiki, uni bajarishda tahliliy tusdagi vazifa hal qilinadi. Aqli zaif bolalar nutqini grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish jarayonining natijasida maxsus mакtabda ona tili ta’limi, umuman, samarali ta’lim olish ta’milnadi.

Aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanish darajalari haqida yaxlit tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu bolalar bilan korreksion-kompensator-rivojlantiruvchi tavsifga ega ish tizimini tashkil etish uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Aqli zaif bolalar ijtimoiy hayotga uyg‘unlashuvining asosiy omili sifatida nutq rivojlanish darajasining tanlanishi pedagogik jarayon istiqbolini belgilash imkonini beradi. Nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tizim maxsus tashkil etilgan muloqot-predmetli-rivojlantiruvchi muhit sharoitidagi na amalga oshirilishi zarurligini isbotladi.

Aqli zaif bolalar uchun ko‘proq dialogik shakldagi nutq tushunarli hisoblanadi. Aqli zaif bolalarning dialogik nutqdan monologik nutqqa o‘tishlarn qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Yordamchi mакtab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma ishlari kambag‘alligi, ifodasizligi bilan ajralib turadi. Yordamchi mакtab o‘quvchilarining yozma ishlari birmuncha shakllangan bo‘ladi. Aqli zaif bolalarning yozma nutqni egallash jarayonlari juda og‘ir kechadi. Aqli zaif bolalarning biror so‘zni yozishlaridan ko‘ra uni o‘qishlari ancha oson kechadi.

Aqli zaif bolalarning tovushlarni harf, bilan, tovushning grafik shakli bilan almashtirishni to‘g‘ri tushunib yetmaydilar. Aqli zaif bolalar uzoq muddat harf bilan so‘zniig munosabatini tushunib yetmaydilar. Aqli zaif bolalar uchun qoida bo‘yicha yozish juda og‘ir kechadi. Ayniqsa, bayon, insho, ish qog‘ozlarini yozish va to‘ldirish qator qiyinchiliklar bilan kechadi. Aqli zaif bolalar uchui eng oson kechadigani bu ko‘chirib yozishdir. Qator aqli zaif bolalarda yozma nutqning buzilishlari uchraydi. Disgrafiya bunga misol bo‘la oladi. Bu nuqson aqli zaif bolalardagi fonematik eshitishning buzilishi, fazoviy tasavvurlarning cheklanganligi, harakat tizimlarining nuqsonli bo‘lishidir. Aqli zaif bolalarning og‘zaki va yozma nutqlarni muvaffaqiyatli egallashlari uchun quyidagi qator psixologik sharoitlardan kelib chiqadi.

Aqli zaif bolalar o‘qiyotgan va yozayotgan o‘z fikrlarini to‘g‘ri bayon qilishlari uchun, umumiy intellektual taraqqiyotning zarur bo‘lgan darajasining yetarli bulishi.

Tovush va harflarning o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tushunish uchun zarur bo‘lgan fonetiko-fonematik taraqqiyotning yetarli darajada bo‘lishi.

Ma’lum darajadagi tafakkurning rivojlangan bo‘lishi.

Aqli zaif bolalardagi ko‘rish, eshitish, harakat va fazoni idrok qilish jarayonlarining saqlangan bo‘lishi.

Ko‘l mayda muskullarining hamda nutq a’zolarining harakatchanligining yetarli darajada bo‘lishi.

Aqli zaif bolalar o‘qish hadisini qator qiyinchiliklar bilan egallaydilar. Ular sekin o‘qiydilar, yoki bo‘sashib, shoshib, urg‘ularsiz, ayrim ishoralarga e’tibor bermasdan o‘qiydilar. Uzoq muddat bo‘g‘inlab o‘qishlarida kamchiliklar ko‘zga tashlanib turadi. Ba’zan birinchi bo‘g‘inlarni bir necha marta takrorlaydilar, ayrim tovushlarni tashlab yuboradilar. Ayrim hollarda esa, qator harflarning o‘rinlarini almashtirib o‘qiydilar, ba’zi tovushlarni o‘zlaricha topib o‘qiydilar. Ayniqsa, aqli zaif bolalarning urg‘uni deyarli qo‘llamasliklari uchrab turadi. Ba’zan yangi so‘zlar qo‘sib o‘qiydilar. Aqly zaif bolalar o‘qigan matnlarning ma’nosini chuqur tushunib yetmaydilar. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan bolalar matnni taxlil qilish, matndagi asosiy g‘oyani topishda qiynaladilar. Aqli zaif bolalarning yoshi ulg‘aygai sari bu kamchiliklar birmuncha korreksiyalanib boriladi. Aqli zaif bolalarning umumiy aqliy taraqqiyotlarida atrofdagi kishilar bilan aloqa qilishi juda katta ahamiyatga ega.

Katta kishilarning rahbarligida va nazorati ostida aqli zaif bolalarda bilish faoliyatları, shaxsiy sifatlari shakllanib boradi. Buyurilgan og‘zaki topshiriqlarni bajarishlari, aqli zaif bolaning unga berilgan og‘zaki topshiriqlarni qanday tushunganliklarini ko‘rsatadi. Shaxs va faoliyat masalasi o‘ziga xos e’tiborni talab etadigan masaladir. Chunki, shaxsiy sifatlar faoliyat jarayonida shakllanib borishi ko‘p mutaxassislarning ishlarida bayon etilgan.

Nutqning faoliyatga va aksincha faoliyatning nutq jarayonlarining takomillashishiga oid qator ma’lumotlar mavjud. Bu ma’lumotlar umumiy psixologiyada ham birmuncha keng ochib berilgan. Aqli zaif bolalarning faoliyatlarini tashkil qilishda, nazorat qilishda beriladigan og‘zaki ko‘rsatmalar o‘zining yaxshi samarasini bermas ekan. Qator defektolog olimlarning kuzatishlaridan ma’lum bo‘lishicha, bu bolalar o‘z faoliyatları haqida yozma hisobot tuza olmas ekanlar. Ammo, bu bolalar ulg‘aygan sari bu kamchiliklari bir kuncha kamayib borar ekan.

O.Konnor ma’lumotlariga qaraganda, obyektlarni tasniflash vazifasini tajribada qatnashgan bolalarning 10% gina to‘g‘ri bajarganlar, ya’ni o‘zlarining faoliyatları natijalarini yozma bayon qilib berishda juda qiynalganlar. Aqli zaif bolalarning o‘z faoliyatları haqida gapirib berishlari, ularning aqliy taraqqiyotlarida alohida o‘rinni egallaydi. Bunday ko‘nikmalar o‘z-o‘zidan, birdaniga yuz bermaydi. Buniig uchun maqsadga qaratilgan, uzoq muddatli pedagogik ishlar talab etiladi. Uning asosini amaliy va mehnat faoliyatlarining turli shakllari egallaydi. Aqli zaif bolalar bilan bajarilayotgan mashqlarda bolaning faqatgina vazifalarni qaytarishi emas, balki ularni albatta bajarishlari zarur.

Maxsus sharoitlarda tashkil etilgan aqli zaif bolalarning mehnat faoliyatlarida bolalar sezilarli muvaffaqiyatlarga erishadilar. Aqli zaif bolalarning yozma nutqlari-murakkab ruhiy faoliyatdir. Og‘zaki nutqdan yozma nutqqa o‘tish-bolalar nutqining rivojlanishida yangi davrdir. Aqli zaif bolalarning so‘zlarni tovush tomondan tahlil qila olishlari grammatik qonun - qoidalarni muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy narsadir.

N.S.Rojdestvenskiyning ta’kidlashicha, «So‘zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni o‘qish va yozishga, keyinchalik to‘g‘ri yozishga o‘rgatish mushkin emas». Aqli zaif bolalarda o‘z kuchiga ishonch hosil qimasdan turib, yordamchi maktablar o‘z

oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha olmaydi. Buning uchun aqli zaif bola bilan uning kuchi yetadigan elementar ko‘nikma va malakalardan boshlash kerak. Bolalarning nutq faoliyatlari ham bundan mustasno emas. Yordamchi maktab o‘quvchilarining ayrimlarida uchrab turadigan «oynali» yozuv ham qator qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Qator aqli zaif bolalar yozish xadisini to‘g‘ri egallay olmaydilar.

Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilar o‘rtasidagi muomala vazifasini bajaradi. Ammo, yozma nutqni oddiygina og‘zaki nutq boshqa shakli deb qarash mumkin emas. Yozma nutqning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, u har doim mavhum mazmunga ega. Buning sababi shuki, yozma nutq bayon etilayotganda tegishli ikkinchi shaxs ishtirok etmaydi. Suhbatdosh bilan quvvatlanmaydigan, rag‘batirilmaydigan, boshqarilmaydigan yozma nutq og‘zaki nutqdan birmuncha murakkab va qiyindir.

Yozma nutq o‘quvchidan og‘zaki nutqdan farqli ravishda, butun bayon qilmoqchi bo‘lgan fikrlarini tasavvur qila olishi kerak. Yozma nutq o‘quvchidan katta irodaviy kuchni talab qiladi. Bola og‘zaki nutqdan foydalanayotgan vaqtda, qanday gapirayotganini, o‘z gapida so‘zlarni qanday tartibda qo‘llayotganini nazorat qilib, o‘ziga hisobot berib bormaydi. Yozma nutqda esa, bayon etilayotgan har bir jumla, fikr maxsus o‘ylashni, fikr yuritishni talab qiladi. Yozma nutada o‘quvchidan alohida diqqa talab etiladi. Yuqoridagilar sababli yozma nutq og‘zaki nutkdan murakkabdir. Og‘zaki va yozma nutq rivojlanishining bir-biriga munosabati o‘ziga xosdir. Shu narsa diqqatga sazovorki, boshlang‘ich sinf yordamchi maktab o‘quvchilarining yozma nutqlarida qo‘shma gaplar ularning og‘zaki nutqlaridan ko‘proq uchrar ekan.

XULOSA. Sinflar yuqorilashgan sari bu farq bir-birlariga yaqinlashib boradi. Ommaviy maktab o‘quvchilarining bu taxlildagi natijalari aqli zaif bolalarning teskarisini tashkil qiladi. Normal bolalarning og‘zaki nutqlarida qo‘shma gaplar ularning yozma nutqlaridan ko‘proq uchrar ekan. Bu farq sababi, bizningcha, maktabgacha yoshda aqli zaif bolalarning umumiyy nutq rivojining pastligi bilan belgilanadi. Yordamchi maktablarda esa, aqli zaif bolalarni qo‘shma gaplarga o‘rgatiladi. Bu o‘rgatish birinchi navbatda ularning yozma nutqlariga ta’sir etadi. Shu narsa ham ma’lumki, aqli zaif bolalarning yozma nutqlarida og‘zaki nutqlariga nisbatan tafakkurning rivojlanish inkoniylatlari ko‘proq ekan. Aqli zaif bolalarning yozma hikoyalarida, og‘zaki hikoyalariga nisbatan hayol obrazlari birmuncha boy bo‘lar ekan. Aqli zaif bolalar yozma nutqlarida o‘zicha ayrim holatlarni o‘ylab, ijod qilib boradilar. Bularning ko‘pchiligi aqli zaif bolalarning og‘zaki nutqlarida uchramaydi. Bu bilan og‘zaki nutqning ahamiyatini pasaytirmoqchi emasmiz. Bayon qilgan qator nutq nuqsonlaridan tashqari, yana aqli zaif bolalarda uchraydigan juda ko‘p nuqsonlar borki, ular haqida logopediya fanida to‘liq ma’lumotlar beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Рубинштейн С.Я. Психология умственного отсталого школьника. – М.: «Просвещение», 1986. – С. 40-45, 73.

2. Войлокова Е.Ф. Особенности использования слов-названий сенсорных эталонов дошкольниками с выраженной умственной отсталостью. // Теоретические и прикладные проблемы образования лиц с интеллектуальной недостаточностью. – Санкт-Петербург: Изд. РГПУ им. А.И.Герцена, 2000. – С. 38–40.
3. Исаев Д.Н. Психическое недоразвитие у детей. Л., 1982.
4. Лисина М.И. Проблема онтогенеза общения. – М.: «Просвещение», 1986. –С. 143.
5. Логопедия. / Под ред. Л.С.Волковой., С.Н. Шаховской. – М.: «Владос», 2003. – С. 46.
6. Фомичёва М.Ф. Воспитание у детей правильного произношения. – М.: «Просвещение», 1989. –С. 56.
7. Мастюкова Е.М. Этиология нарушений речи. // «Логопедия»: М., 1998. –С. 123.
8. Смирнова З.Н. Развитие речи учащихся вспомогательной школы в связи с изучением имени прилагательного. – М.: «Просвещение», 1990. –С. 67.
9. Нуркельдиева Д.А. Методы определения речевой готовности умственно отсталых детей к обучению в школе. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Т.: ТГПУ им. Низами, 2001. –С. 21.
10. Шиф.Ж.И. Особенности умственного развития учащихся вспомогательной школы. М., 1965. С. 20-33.